



ORIENTFINANSBANK

Silk Capital

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

**ПО ИТОГАМ ОЦЕНКИ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО
УПРАВЛЕНИЯ ЧАКБ «ОРИЕНТ ФИНАНС» ЗА 2025 ГОД**



“07” may 2026 yil

№ 01/01-30

**“Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki korporativ
boshqaruv tizimini 2025 yil yakunlari bo‘yicha baholash
natijalari yuzasidan
XULOSA**

Qabul qiluvchi ma'lumotlari:

Ko'rsatkich	Ma'lumot
Tashkilot	"Orient Finans" xususiy aksiyadorlik tijorat banki
Yuridik manzil	100052, Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi 5-uy
Aloqa telefoni	Tel: (+99871) 205 55 55
E-mail	info@ofb.uz
Hisob raqami	21302000800001071000, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar RKTs
MFO	01071
INN (STIR)	207086151
OKONH	64190

Mustaqil tashkilot:

Ko'rsatkich	Ma'lumot
Tashkilot	MCHJ "SILK CAPITAL"
Yuridik manzil	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi 59-A
Aloqa telefoni	Tel: (71) 237-04-78
E-mail	info@silkcapital.net
Hisob raqami	20208000400760141001
Bank	O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Bosh operatsion filiali
MFO	00407
INN (STIR)	304824506
OKED	84400

MCHJ "SILK CAPITAL" tomonidan "Orient Finans" xususiy aksiyadorlik tijorat bankining korporativ boshqaruv tizimi bo'yicha 2025 yil yakunlari yuzasidan mustaqil baholash o'tkazildi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-son Farmoni, 2015-yil 31-dekabrda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha Komissiya majlisi bayonnomasi 9-son bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv kodeksi" tavsiyalari, shuningdek 2016-yil 25-iyulda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim

markazi tomonidan tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun so‘rovnoma”ga muvofiq amalga oshirildi.

MCHJ “SILK CAPITAL” tomonidan “Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banking korporativ boshqaruv tizimi jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida o‘rganildi.

Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning tayyorlanishi va ishonchliligi uchun “Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banking rahbariyati javobgardir.

Ushbu xulosa xolis va obyektiv baholash asosida tuzilgan bo‘lib, MCHJ “SILK CAPITAL” qo‘shimcha foyda olishni maqsad qilmaydi hamda “Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki bilan mulkiy munosabatlarga ega emas.

O‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra “Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banking korporativ boshqaruv samaradorligi 1000 ballni tashkil etib, “**yuqori**” deb e’tirof etiladi va 83 foizni tashkil qiladi. Yo‘nalishlar kesimida natijalar quyidagicha ko‘rinishda.

“Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banking korporativ boshqaruvni baholashning jamlanma jadvali

№	Yo‘nalish	Savollar soni	Mumkin bo‘lgan ball		Amaldagi baho
			МИНИМУМ	максимум	
1	Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonlarini baholash	13	-135	135	135
2	Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etilishini baholash	37	-360	360	295
3	Aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tuzilmasining muvofiqligini baholash	3	-30	30	30
4	Tanlov asosida saralashni baholash	5	-45	45	15
5	Moliya hisobotini MHXS va xalqaro audit standartlari asosida yuritishga o‘tishni baholash	3	-50	50	50
6	Zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishni baholash (ISO, ERP, NIOKR va boshqalar)	5	-55	55	45
7	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320	250
8	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150	125
9	Boshqa yo‘nalishlarni baholash	25	-205	55	55
Jami:		100	-1200	1200	1000

Yakuniy baho (foiz shkalasida):

83%

min
-1200

max
1200

Ekspert

G.P.Tursunov

Direktor

M.M.Xasanov

